

UDK 91

Ilmiy rahbar: g.f.f.d. (PhD) Qoriyev Mirzohid

Scientific adviser: (PhD) Koriev Mirzohid

Ekologiya kafedrası katta o'qituvchisi

Namangan davlat universiteti,

Ergasheva Tabassum

Ergasheva Tabassum

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Namangan davlat universiteti,

O'zbekiston, Namangan

**MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA QIZIQARLI
O'YINLAR YORDAMIDA EKOLOGIK TA'LIM SAMARADORLIGINI
OSHIRISH IMKONIYATLARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ekologik bilim va ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida olib borilgan qiziqarli o'yinlarning natijalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, ekologik savodxonlik, ekologik madaniyat, tabiatni muxofaza qilish, qiziqarli o'yinlar.

Аннотация. В данной статье представлены результаты веселых игр, проведенных для формирования экологических знаний и умений дошкольников.

Ключевые слова: детсадовцы, экологическая грамотность, экологическая культура, охрана природы, веселые игры.

KIRISH. Bugungi kunda inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning tobora keskinlashuvi oqibatida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar tobora global ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu esa ekologik madaniyat, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik ma'rifat masalalariga har doimgidanda ko'proq e'tibor qaratishni

taqazo etmoqda. Tabiatni asrab avaylash, unga ziyon yetkazmaslik, atrof muhitga nisbatan e'tiborli bo'lish va qo'pol munosabatda bo'lishni oldini olish uchun ta'lim va tarbiyaning ilk bosqichlaridan boshlab ekologik madaniyatni rivojlantirishga kirishish kerak. Shu bois, bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik savodxonligini oshirish masalasi juda dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki, maktabgacha yoshdagi bolaning qalbi beg'ubor, juda hissiy, samimiy va rahmshafqatli bo'lib, tabiatni tirik organizm deb his qilishadi. Ayni shu davrda bolalarga yetarlicha ekologik ta'lim berilib, bilim va ko'nikmalari shakllantirilsa hamda bolalar onggiga ekologik madaniyat singdirilsa ona tabiatni sevuvchi yangi avlod ulg'ayib boradi. Ushbu maqsadlarga erishishda maktabgacha ta'lim muassasalarining o'rni va roli juda yuqori hisoblanadi. Chunki, ushbu ta'lim muassasalarida dunyoni endigina anglab borayotgan yosh avlodlarga ilk ta'lim va tarbiya berib boriladi. Ekologik ta'lim va tarbiyani ham mana shu bosqichda yoshlar onggiga yetarli darajada singdirish maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda qiziqarli, maxsus o'yinlardan foydalanib, bolalarning ekologik bilim va ko'nikmalarini oshirishga bag'ishlangan mazkur tadqiqot ishi olib borildi.

Zero O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-son qarorning 10-bandida "Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyalanuvchilarning ekologik ongi ularning ko'ziga yaqqol tashlanadigan atrof tabiiy muhit (er, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi) bilan "Ona tabiat" mavzusida ochiq havoda tanishtiruv soatlari o'tkazish, rasmlar chizdirish, atrof olam haqidagi she'rlarni yod oldirish, mashqlarni bajartirish va turli mavzudagi **o'yinlarni** tashkil etish orqali shakllantiriladi" deb alohida belgilab qo'yilgan [1]. Bundan tashqari ba'zi internet manbaalarida keltiriladiki - "Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim berishning asosiy turlaridan biri didaktik o'yinlar hisoblanadi. Qiziqarli o'yinlar tufayli bolalar

tabiatni yanada yorqinroq tasavvur eta boshlaydi, tabiat elementlarini bir biri bilan solishtiradi va ularni tasniflaydi. Bolalar tabiiy dunyo haqida yangi ma'lumotlarni o'rganadilar, jumladan, hayvonlar va o'simliklar hayoti haqida, ularni bir biri bilan munosabatlari haqida bilib olishadi. Didaktik o'yinlar orqali bolalarning tabiat haqidagi bilimlari bilan bir qatorda muloqot qobiliyatlari ham yaxshilanadi, xotira mustahkamlashadi, ijobiy hissiyotlar uyg'onadi, fikrlash qobiliyati va nutq ravonligi yaxshilanadi" [2].

ASOSIY QISM. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik savodxonligini va ekologik madaniyatini oshirish uchun maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga turli usul va metodlardan foydalanib kelinmoqda. Bu borada yosh bolalarni samarali jalb eta oladigan qiziqarli o'yinlar yordamida ularning bilim darajalarini oshirish eng samarali usullardan biri bo'lishi mumkin. Shuni amalda sinab ko'rish va aniqlash maqsadida Namangan shahar 1-sonli maktabgacha ta'lim muassasasida o'ziga hos tajriba o'tkazildi. Ya'ni, qiziqarli o'yin tarzidagi mashg'ulot tashkil etildi. Mashg'ulotni boshlash avvalida tarbiyalanuvchi bolalarning ekologik bilim darajalari savol-javob tarzida aniqlashtirib olindi (natijalar 1-jadvalda keltirilgan).

O'yin tafsilotlari va asosiy natijalar. Mashg'ulotni o'rta guruxda olib borilishi belgilandi va guruxdan 12 nafar bola tanlab olindi. Belgilangan xona ham mashg'ulot o'tkazishga tayyor qilib olingan edi, ya'ni belgilangan rangdagi hamda belgilangan materialdagi chiqindilar xona bo'ylab yoyib qo'yildi. Chiqindilar, asosan, 3 xil rangda ya'ni qizil, sariq va ko'k kabi yorqin ranglarda tayyorlandi hamda chiqindi tashlash uchun ham aynan mana shu ranglarga ega idishlar o'rnatildi.

Bolalarni 3 guruxga 4 nafardan qilib taqsimlab chiqildi. 1 - gurux quyoshcha, 2- gurux yulduzcha va 3-guruxni qaldirg'ochlar deb nomlandi. Bolalarning vazifalari turli ranglardagi chiqindilarni ayni o'sha rangdagi chiqindi qutisiga

tashlashdan iborat bo'ldi. Ushbu shartlar asosida o'yin mashg'ulotlari olib borildi. Takidlash joizki, o'rta gurux bolalarida ranglarni to'g'ri ajratish hamda idishga to'g'ri joylash a'lo darajada amalga oshirildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bolalar mashg'ulotni deyarli qiyinchiliklarsiz yakunladilar. Shunday bo'lsada, bazi ishtirokchi bolajonlarda jismoniy jihatdan horiqish holatlari kuzatildi, lekin g'alaba qozonishga bo'lgan intilish, o'z jamoasini g'olib bo'lishiga bo'lgan ishtiyoq ularga kuch bag'ishlab turdi.

Natijalar shuni kōrsatdiki barcha jamoalar aktiv ishtirok etishdi. Lekin mashg'ulot qoidasi va sarflangan vaqt hisobga olindi. Shunga ko'ra birinchi va uchinchi jamoalarga qaraganda ikkinchi jamoa ishtirokchilari kam vaqt sarflagan holda, shuningdek, eng ko'p miqdorda chiqindilarni to'plaganliklari sababli g'olib jamoa deb topildi. Mashg'ulot so'nggida ularni rag'batlantirish maqsadida "Tabiatchi bolajon" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Mashg'ulotni boshlash avvalida tarbiyalanuvchi bolalarning ekologik bilim darajalari savol-javob tarzida aniqlashtirib olingan edi. O'tkazilgan mashg'ulotning qay darajada samarali bo'lganini aniqlash uchun, mashg'ulotdan keyin ham savol-javoblar tashkil etildi. Ularning natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Maktabgacha ta'lim muassasasida o'tkazilgan savol-javob natijalari

T/R	Savollar	Mashg'ulotdan avval		Mashg'ulotdan keyin	
		Jami ishtirokchilar	To'g'ri javob berganlar	Jami ishtirokchilar	To'g'ri javob berganlar
1	Chiqindi nima?	12	7	12	10
2	Siz tabiatni asrash deganda nimani tushinasiz?	12	4	12	*6
3	Chiqindini qayerlarga tashlash kerak?	12	8	12	10
4	Hozirgi kunda nima uchun havo tez ifloslanmoqda?	12	3	12	8

5	Tabiatni asrash uchun nimalarga e'tibor berish kerak?	12	4	12	9
6	Siz bog'changizda chiqindilarni qayerlarga tashlaysiz?	12	12	12	12
7	Siz tabiatni asrash uchun nimalar qilyapsiz?	12	5	12	9
O'rtacha natija			6 (50%)		9 (75%)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mashg'ulotdan avval berilgan savollarga 12 nafar boladan o'rtacha 6 nafari yetarlicha aniq javob bera olgan holos. Mashg'ulot o'tkazilgandan so'ng aynan o'sha savollar qayta berildi. Natija o'rtacha 25% ga yaxshilanganini ko'rsatdi.

XULOSA. Ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida Namangan shahridagi 1-sonli maktabgacha ta'lim muassasasida o'tkazilgan o'yinli mashg'ulotda bolalar tabiatni asrash kerakligini, turli hil chiqindilarni belgilangan chiqindi qutilariga tashlash lozim ekanligini anglab yetdilar. Chiqindilarni to'g'ri kelgan joyga tashlash ko'plab tirik organizmlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi, shu jumladan inson salomatligiga jiddiy tasir qiluvchi turli xil kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin ekanligi haqida anchagina bilimga ega bo'ldilar. Mashg'ulot orqali erishilgan ijobiy natijalarni inobatga olib, yoshlar ongida ekologik savodxonlik va ekologik madaniyatni shakllantirish uchun qiziqarli o'yinlardan foydalanish va barcha maktabgacha ta'lim muassalariga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". 434-son, Toshkent, 2019 yil 27 may.

2. www.uz.everaoh.com. Bolalar bogchasida ekologik ta'lim. <https://uz.everaoh.com/bolalar-bogchasida-ekologik-talim/>